



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/oiss>

## HISTORICAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF INTELLECTUAL POTENTIAL

**Zokirjon Jobborov**

1st-year Master's student

Department of History of Uzbekistan, Faculty of History,

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** intellectual potential, mind, cognition, IQ, EQ, cognitive psychology, pedagogical approach, Gardner's theory, Vygotsky, methodology, human capital, multiple intelligences.

**Received:** 24.02.25

**Accepted:** 26.02.25

**Published:** 28.05.25

**Abstract:** This article analyzes the historical formation of the concept of intellectual potential, its interpretation in philosophical sources, its development in psychological and pedagogical theories, and its contemporary methodological approaches. The author highlights how the concept has evolved from ancient Greek philosophy to its present-day understanding within the fields of cognitive psychology, neuropsychology, sociology, and innovation economics. Through the views of G. Gardner, R. Sternberg, L.S. Vygotsky, I. Kant, and other leading thinkers, the interdisciplinary nature of intellectual potential is revealed. The article also examines modern indicators of human potential such as IQ, EQ, and AQ, and discusses the role of intellectual resources in education and social development. Finally, practical recommendations for fostering intellectual potential are proposed.

## INTELLEKTUAL SALOHIYAT TUSHUNCHASINING TARIXIY-METODOLOGIK YONDASHUVLARI

**Zokirjon Jobborov**

1-bosqich magistranti,

O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti "O'zbekiston tarixi" yo'nalishi  
Toshkent, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** intellektual salohiyat, aql, tafakkur, IQ, EQ, kognitiv psixologiya, intellektual

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada salohiyat tushunchasining

pedagogik yondashuv, Gardner nazariyasi, Vygotskiy, metodologik asoslar, inson kapitali, ko‘p qirrali intellekt.

shakllanishi, tarixiy falsafiy manbalardagi talqinlari, psixologik va pedagogik nazariyalardagi rivojlanishi hamda zamonaviy metodologik yondashuvlari tahlil etilgan. Tushunchaning qadimgi yunon falsafasidan tortib kognitiv psixologiya, neyropsixologiya, sotsiologiya va innovatsion iqtisodiyot doirasida qanday talqin qilinishi tarixiy-mantiqiy asosda yoritilgan. G. Gardner, R. Sternberg, L.S. Vygotskiy, I. Kant va boshqa yetakchi mutafakkirlarning yondashuvlari misolida intellektual salohiyatning fanlararo mohiyati olib berilgan. Maqolada IQ, EQ, AQ kabi zamonaviy salohiyat mezonlari tahlil qilinib, ta’lim va ijtimoiy taraqqiyotda intellektual resurslarning roli yoritiladi. Yakunda salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

## ИСТОРИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПОНЯТИЮ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА

**Закиржон Джобборов**

*Магистрант 1 курса направления*

*«История Узбекистана», исторический факультет*

*Национальный университет Узбекистана, г. Ташкент*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** интеллектуальный потенциал, разум, мышление, IQ, EQ, когнитивная психология, педагогический подход, теория Гарднера, Выготский, методология, человеческий капитал, множественный интеллект.

**Аннотация:** В статье рассматривается формирование понятия интеллектуального потенциала, его трактовка в философских источниках, развитие в рамках психологических и педагогических теорий, а также современные методологические подходы. Показано, как данное понятие трансформировалось от античной философии до современных научных представлений в контексте когнитивной психологии, нейропсихологии, социологии и инновационной экономики. На основе трудов Г. Гарднера, Р. Стернберга, Л.С. Выготского, И. Канта и других выдающихся мыслителей раскрывается междисциплинарная сущность интеллектуального потенциала. Особое внимание уделено анализу современных индикаторов, таких как IQ, EQ, AQ, а также роли интеллектуальных ресурсов в сфере образования и социального развития. В заключение предложены практические рекомендации по развитию

интеллектуального потенциала.

---

Intellektual salohiyat tushunchasi inson tafakkuri, bilish qobiliyatları va aqliy rivojlanishining turli bosqichlarini o‘zida mujassam etgan murakkab nazariy-kategoriya sifatida shakllangan. Bu tushuncha nafaqat alohida individning, balki butun jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot darajasini belgilovchi mezonlardan biri sifatida baholanishi bejiz emas. Chunki tarixiy taraqqiyot davomida insoniyat tomonidan yaratilgan barcha ijtimoiy institutlar, fan-texnika yutuqlari, falsafiy qarashlar va innovatsion g‘oyalar aynan insonning intellektual salohiyati mahsuli sifatida yuzaga chiqqan.

Ilmiy adabiyotlarda “intellektual salohiyat” atamasi ko‘pincha aql-zakovat, tafakkur doirasi, analitik va ijodiy fikrlash qobiliyati, bilimlarni egallash va ularni amalda qo‘llash ko‘nikmalari bilan bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlar majmui sifatida talqin qilinadi. Biroq bu tushuncha har bir davrda, har bir ilmiy maktabda o‘ziga xos yondashuvlar asosida izohlanib kelgan. Shu sababli, uni mutlaq va yakdil mazmunda tushunish emas, balki ko‘p qirrali va fanlararo yondashuv doirasida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Intellektual salohiyatga bo‘lgan yondashuv tarixan antik falsafiy tafakkurdan boshlanadi. Platon va Aristotel asarlarida inson aqli va tafakkuri oliv qadriyat sifatida baholangan bo‘lib, bu tushuncha ilohiy ilhom bilan bog‘langan holda talqin qilingan. Ayniqsa, Aristotel “nous” tushunchasi orqali insonda mavjud bilim olish va mulohaza yuritish qobiliyatining tabiiy asoslarini izlagan. Bu yondashuv O‘rta asrda Islom olamida — ayniqsa, Forobiy, Ibn Sino va Ibn Rushd kabi mutafakkirlar orqali yanada kengaytirildi. Ular intellektual salohiyatni faqat aqliy bilim bilan emas, balki axloqiy kamolot, ma’naviy tajriba va amaliy faoliyat bilan ham bog‘liq deb ko‘rishgan.

Yevropa Uyg‘onish davri va yangi davr falsafasida esa intellektual salohiyat subyektiv bilish jarayoni, tanqidiy aql va tajriba orqali haqiqatga erishish vositasi sifatida qaraldi. R. Dekart, J. Lokk, I. Kant singari mutafakkirlar fikricha, inson aqli bilishning yagona manbai va me’zoni bo‘lib xizmat qiladi. Kant tomonidan ilgari surilgan “sof aql tanqidi” nazariyasi intellektual salohiyatni nazariy tafakkur va bilish jarayonlarining ichki strukturalarini tahlil qilish orqali aniqlashga urindi.

XIX asrda intellektual salohiyat pedagogika, psixologiya va fiziologiya fanlari doirasida eksperimental yondashuv asosida o‘rganila boshlandi. A. Bine, Ch. Spearman, L. Terman kabi tadqiqotchilar insonning intellektual imkoniyatlarini baholovchi testlar yaratib, uni o‘lchovli tushuncha darajasiga olib chiqdilar. Bu yondashuv XX asrda turli psixometrik modellarning shakllanishiga olib keldi. Masalan, Ch. Spearmaning “g-omil” nazariyasi, G. Gardnerning ko‘p qirrali intellekt konsepsiysi, R. Sternbergning uchkomponentli nazariyasi intellektual salohiyatni turlicha yo‘nalishlarda izohladi.

Sovet davri psixologiyasida L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev, S.L. Rubinshteynlarning ishlarida intellektual salohiyat sotsiogenetik model asosida tahlil qilindi. Ya’ni, inson intellekti individual-biologik emas, balki ijtimoiy-tarixiy faoliyat va madaniy vositalar orqali shakllanadigan tizim sifatida qaraldi. Ushbu yondashuvda intellektual salohiyat bolaning o‘qituvchi va jamiyat bilan o‘zaro ta’siri orqali rivojlanishi mumkinligi asoslab berildi.

So‘nggi o‘n yilliklarda intellektual salohiyat tushunchasining metodologik talqini ancha murakkab va ko‘p darajali tus oldi. Hozirda bu tushuncha nafaqat kognitiv psixologiyada, balki neyrofiziologiya, iqtisodiyot, sotsiologiya, ta’lim nazariyasi, hatto siyosatshunoslik va antropologiyada ham qo‘llanilmoqda. Masalan, inson kapitali nazariyasida intellektual salohiyat jamiyat taraqqiyotining eng muhim iqtisodiy resursi sifatida qaraladi. AQShda, Yaponiya va Janubiy Koreyada ta’lim tizimlarida aynan intellektual salohiyatni innovatsion g‘oyalarga yo‘naltirishga alohida urg‘u berilmoxda.

Intellektual salohiyat tushunchasi fanda va amaliy hayotda o‘zining o‘rni va ahamiyatiga ega murakkab kategoriyadir. U tarixiy, madaniy, ijtimoiy va individual omillar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib borgan, har bir bosqichda yangicha ilmiy-metodologik asoslar bilan boyitilgan. Shu sababli, bu tushunchaning zamonaviy talqini ko‘p fanli, interdisiplinar yondashuvni talab qiladi.

Ilk falsafiy tafakkur tarixida aql, tafakkur va idrok insonning eng oliy fazilatlari sifatida qaralgan. Bu yondashuv, avvalo, qadimgi yunon falsafasida chuqur asoslangan bo‘lib, Platon va Aristotel singari mutafakkirlar tomonidan shakllantirilgan. Platon nazarida “logos” — nutq va aql-zakovat orqali olamni anglash insonning ilohiy tabiatini bilan bog‘liq bo‘lsa, Aristotel bu yondashuvni tizimli ravishda rivojlantirib, “nous” tushunchasini ilgari surdi. Aristotel ta’limotida “nous” aqlning eng yuqori shakli bo‘lib, u faqat bilish emas, balki maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni ham anglatadi. Insonning bilim olish, tahlil qilish, qiyoslash va xulosa chiqarish qobiliyatlari aynan “nous” orqali amalga oshadi. Unga ko‘ra, intellekt o‘zgaruvchan dunyoni anglash va tartibga solish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Islom olamida ham aql va intellekt tushunchalariga alohida e’tibor qaratilgan. Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd kabi allomalar Aristotel falsafasini o‘zlashtirgan holda, uni islomiy tafakkur bilan uyg‘unlashtirib, intellektual salohiyatni inson kamolotining asosi deb bilganlar. Xususan, Ibn Sino “al-aql” (aql) va “al-quvvat al-fikriyya” (fikrlovchi quvvat) tushunchalari orqali bilish jarayonining bosqichlarini izohlab bergen.

Yevropa Uyg‘onish davridan boshlab intellektual salohiyat tushunchasi ilohiy manbalardan ajralib, tabiatshunoslik, antropologiya va eksperimental psixologiya bilan bog‘liq holda shakllana boshladidi. Insonni bilish subyekti sifatida o‘rganish tendensiyasi kuchaydi. XVII–XVIII

asrlar mutafakkirlari — R. Dekart, J. Lokk, D. Yum, I. Kant va boshqalar aqlning funksional mohiyatini, bilish imkoniyatlarini tahlil qilishga kirishdilar. Dekart aqlni shubhasiz bilimlar asosida quriladigan asosiy vosita deb baholagan. Uning “Men o‘yayapman, demak, mavjudman” degan mashhur tezisi inson intellekti va mavjudligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqliki ko‘rsatadi. J. Lokk esa inson aqlini “toza taxta” (tabula rasa) sifatida talqin qilib, bilim tajriba orqali shakllanishini asoslab berdi. I. Kant esa inson aqliy faoliyatining chegaralarini o‘rganib, “aql tanqidi” orqali tafakkurning strukturaviy xususiyatlarini aniqlashga urindi. Kant fikricha, aql tajribani tashkil etuvchi faol element bo‘lib, insonning bilimga erishishidagi faol subyektiv pozitsiyasini belgilaydi.

XIX asrda intellektual salohiyat tushunchasi tabiiy-ilmiy va tajribaviy yo‘nalishda rivojlanib, pedagogika va psixologiya fanlarining markaziy muammolaridan biriga aylandi. Bu davrda inson miya tuzilishi va aqliy qobiliyatlari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishga qiziqish ortdi. Yozef Gall fisionomik yondashuv asosida bosh miya shakli bilan aqliy salohiyatni bog‘lashga harakat qildi. Uning izidan F. Galton intellektual qobiliyatlarning genetik merosiyati haqida nazariya ishlab chiqdi. Bu yondashuvda intellekt biologik determinantlarga bog‘liq, o‘zgarmas va tabiiy ravishda ierarxiyalashgan deb hisoblangan.

1905 yilda fransuz olimi Alfred Binet tomonidan yaratilgan ilk aqliy salohiyat testlari psixologiyada burilish yasadi. Binet aql darajasini aniqlashda yoshga nisbatan intellektual yutuqlarni solishtirish metodini taklif etdi. Keyinchalik amerikalik olim L. Terman Binet testini takomillashtirib, IQ (Intelligence Quotient) — intellekt koeffitsiyenti tushunchasini ilm-fanga kiritdi. Ch. Spearman esa intellektni umumiy (g-omil) va maxsus (s-omil) qobiliyatlarga ajratib, psixometrik tahlil asosida o‘lchash metodikasini ishlab chiqdi. G. Allport, D. Veksler va boshqa olimlar esa intellektual faoliyatni o‘lchashda ijtimoiy-madaniy omillarni ham inobatga olish zarurligini ta’kidladilar.

XX asr o‘rtalariga kelib, Sovet psixologiyasida intellektual salohiyat tushunchasi marksistik-ma’rifiy paradigma asosida shakllandi. Bu yondashuvda inson intellekti ijtimoiy faoliyat natijasi sifatida talqin qilindi. L.S. Vygotskiy “yaqin rivojlanish zonasasi” konsepsiyasini ishlab chiqib, bolaning intellektual salohiyati uning o‘z-o‘zidan emas, balki o‘qituvchi, atrof-muhit va jamiyat bilan o‘zaro ta’sirida yuzaga chiqishini asoslab berdi. A.N. Leontyev intellektual faoliyatni faoliyat nazariyasi doirasida, S.L. Rubinshteyn esa psixik jarayonlarning yaxlitligi va reflektiv mohiyatida tahlil qildi. Ularning qarashlariga ko‘ra, insonning tafakkuri va aqliy salohiyati faoliyat bilan birgalikda rivojlanadi va bu rivojlanish ijtimoiy-tarixiy tajriba bilan uzviy bog‘liqdir.

Sovet yondashuvi hozirgi kunda ham ta’lim psixologiyasi va metodikasi sohasida dolzarb

bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, ta’lim muhitida bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda individual yondashuv, faoliyatga asoslangan o‘qitish va kooperativ o‘rganish metodlari Vygotskiy paradigmasi asosida amaliyotga joriy etilmoqda.

Shunday qilib, intellektual salohiyat tushunchasi tarixiy rivojlanish jarayonida falsafa, psixologiya, pedagogika, neyrologiya, sotsiologiya kabi fanlar doirasida boyitilib, zamonaviy fanlararo tahlilning markaziy mavzularidan biriga aylangan. Unga yondashuvlar har bir tarixiy bosqichda mavjud ilmiy dunyoqarash, metodologik vositalar va jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlariga mos tarzda o‘zgarib, takomillashib borgan.

Metodologik jihatdan intellektual salohiyat tushunchasiga turli ilmiy yo‘nalishlar doirasida yondashilgan bo‘lib, bu tushuncha psixologiya, sotsiologiya, neyrobiologiya, iqtisodiyot va ta’lim nazariyasining kesishgan nuqtasida joylashgan kompleks kategoriyanı ifodalaydi. Ayniqsa, so‘nggi o‘n yilliklarda kognitiv psixologiya, neyropsixologiya va fanlararo yondashuvlar ushbu tushunchaning yangi ilmiy talqinlarini yuzaga chiqardi.

Kognitiv psixologiyada intellektual salohiyat inson ongida yuz beruvchi bilish jarayonlari — idrok, e’tibor, xotira, til, fikrlash va qaror qabul qilish faoliyatları bilan bevosita bog‘liq holda o‘rganiladi. Bu yondashuvda insonning bilimga bo‘lgan ochiqligi, muammo yechish strategiyalari, ma’lumotni qayta ishlash tezligi va tanqidiy tahlil qobiliyati asosiy mezon sifatida qaraladi. Masalan, J. Piagening kognitiv rivojlanish nazariyasida intellektual salohiyat bosqichma-bosqich shakllanadigan, har bir bosqichda yangi kognitiv operatsiyalar bilan boyib boradigan jarayon sifatida izohlanadi.

Neyropsixologiya esa aqliy salohiyatni miya faoliyati va neyron tizimlarning o‘zaro munosabatlari orqali izohlaydi. Bu yondashuvda intellektual qobiliyatlar frontal korteks faoliyati, neyron plastiklik va miyada sodir bo‘ladigan fiziologik jarayonlar bilan bog‘lab o‘rganiladi. FMRT va PET texnologiyalari yordamida inson intellektini real vaqtida o‘lchashga oid yangi metodikalar ishlab chiqilgan.

Sotsiologik yondashuvda intellektual salohiyat jamiyatda mavjud bilimlar almashinushi, madaniy kapital, ijtimoiy status va institutsional imkoniyatlar bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Bu qarashda salohiyat faqat individual emas, balki ijtimoiy konstruksiya bo‘lib, jamiyatdagi tengsizliklar, gender, milliy yoki iqtisodiy farqlar orqali shakllanadi. Masalan, P. Bourdieu tomonidan ilgari surilgan “madaniy kapital” tushunchasi orqali yuqori intellektual salohiyatga ega bo‘lgan guruhlarning ta’limda va jamiyatda ustunlik qilishi asoslab berilgan.

Innovatsion iqtisodiyot yondashuvida esa intellektual salohiyat inson kapitalining markaziy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida baholanadi. Iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanish bevosita intellektual resurslarga — bilimli, malakali, yangilikka ochiq insonlarga bog‘liqidir. Inson

kapitali nazariyasida salohiyatni rivojlantirish — bu sarmoya sifatida ko‘riladi, chunki u jamiyatga qayta investitsiya qilinadigan foyda keltiruvchi resursdir.

Bu nuqtada G. Gardner tomonidan ishlab chiqilgan “ko‘p qirrali intellekt” nazariyasi muhim ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, intellekt faqat lingvistik va matematik qobiliyatlar bilan emas, balki musiqiy, fazoviy, jismoniy-kinestetik, shaxslararo (interpersonal), shaxsiy ichki (intrapersonal), tabiiy fanlarga oid (naturalistik) va hattoki ekzistensial yo‘nalishlardagi qobiliyatlar bilan ham aniqlanadi. Bu nazariya intellektual salohiyatga klassik “IQ” yondashuvdan tubdan farq qiluvchi, demokratik va inklyuziv ko‘rinish beradi.

### **Jadval 1. Intellektual salohiyatga yondashuvlar jadvali**

Asosiy yo‘nalish	Vakillar	Yondashuv mohiyati	Asosiy tushunchalar
Antik falsafa	Platon, Aristotel	Aql ilohiy va tabiiy quvvat sifatida talqin qilinadi	Nous, logos, aql
Yangi davr falsafasi	Dekart, Lokk, Kant	Aql – bilish va haqiqatga erishish vositasi sifatida; tafakkurning tanqidiy tahlili	Rationalism, empiricism, krititsizm
Psixometriya (XIX–XX asr)	Binet, Galton, Terman, Spearman	Aqliy salohiyat testlar orqali baholanadi; o‘lchov va statistik model asosida	IQ, test sinovlari, statistik farqlar
Sovet psixologiyasi	Vygotskiy, Leontyev, Rubinshteyn	Intellekt ijtimoiy faoliyat mahsuli; ijtimoiy tajriba va muomala orqali rivojlanadi	ZPD (yaqin rivojlanish zonasi), faoliyat, nutq
Kognitiv psixologiya	Piaget, Bruner, Neisser	Bilish jarayonlari (xotira, tafakkur, idrok) asosida intellektni tahlil qilish	Kognitsiya, muammo hal qilish, bilish strategiyalari
Neyropsixologiya	Luriya, Damasio, Gazzaniga	Miya faoliyati va neyron aloqalar orqali aqliy salohiyatni o‘rganish	Frontal korteks, neyroplastiklik, miya xaritalari
Sotsiologik yondashuv	Bourdieu, Coleman	Intellektual salohiyat – ijtimoiy holat,	Madaniy kapital, ijtimoiy tengsizlik,

		madaniy kapital va institutlar bilan bog'liq	bilim almashuvi
Innovatsion iqtisodiyot	Schultz, Becker, Drucker	Inson kapitalining bir turi; iqtisodiy o'sishga hissa qo'shuvchi resurs	Inson kapitali, innovatsion salohiyat
Ko'p qirrali intellekt nazariyasi	Gardner, Sternberg	Intellekt bir nechta mustaqil qobiliyatlardan iborat: musiqiy, fazoviy, ijtimoiy va b.	Lingvistik, matematik, intrapersonal, interpersonal qobiliyatlar

Zamonaviy global yondashuvlarda intellektual salohiyatni faqat IQ (intelligence quotient) orqali o'lhash yetarli emasligi tobora ravshanlashmoqda. Shuning uchun so'nggi yillarda EQ (emotional quotient — hissiy intellekt), AQ (adversity quotient — qiyinchiliklarga bardoshlilik koeffitsienti), CQ (cultural quotient — madaniy moslashuvchanlik), SQ (spiritual quotient — ma'naviy intellekt) kabi tushunchalar keng qo'llanila boshlandi. Bu ko'rsatkichlar orqali insonning aqliy salohiyati nafaqat muammolarni hal qilish va fikrlash darajasi bilan, balki emotsiunal barqarorlik, qiyin vaziyatlarga adaptatsiya, madaniy muhitlarga moslashish va ma'naviy qarashlar orqali ham baholanmoqda.

Shunday qilib, intellektual salohiyat tushunchasi o'zining tarixiy taraqqiyoti davomida ontologik, epistemologik va metodologik jihatdan boyib borib, hozirgi kunda fanlararo tahlilning muhim obyekti sifatida namoyon bo'lmoqda. U nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ijtimoiy hayotning turli sohalarida — ta'lim, boshqaruv, innovatsiya, texnologiya, madaniyat, diplomatiya va hatto xavfsizlik siyosatida muhim rol o'yamoqda.

Ilmiy xulosa qilib aytganda, intellektual salohiyat — bu insonning bilish, o'rghanish, tafakkur qilish, muammolarni hal etish, moslashish va ijodkorlik kabi murakkab aqliy faoliyatlarini o'z ichiga oluvchi kompleks qobiliyatlar tizimidir. Bu salohiyat biologik asosga ega bo'lishi bilan birga, sotsiomadaniy shart-sharoitlar, ta'lim muhiti va shaxsiy tajribalar orqali shakllanadi. Intellektual salohiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy resurslaridan biri sifatida qaralmoqda va u innovatsion raqobatdosh jamiyatning asosi sifatida tobora ortib bormoqda.

Taklif va tavsiyalar:

1. Intellektual salohiyat tushunchasini o'rta va oliy ta'lim dasturlariga integratsiyalashda fanlararo yondashuvdan foydalanish zarur. Bu, ayniqsa, psixologiya,

informatika, iqtisodiyot, sotsiologiya va madaniyatshunoslik fanlari kesishmasida amalga oshirilishi lozim.

2. Ilmiy va amaliy salohiyatni baholashda nafaqat IQ, balki kompleks ko'rsatkichlarni (EQ, AQ, CQ, SQ) qamrab oluvchi o'lchov tizimlarini yaratish va ularni ta'lif jarayonida qo'llash tavsiya etiladi.

3. Yangi avlod vakillarida intellektual salohiyatni rivojlantirish uchun tanqidiy fikrlash, kognitiv muammolarni hal qilish, axborotni tanqidiy tahlil qilish, kultural kompetensiyani rivojlantirish va ijodiy fikrlash metodikalarini keng joriy etish muhimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar va manabalar ro'yxati:**

1. Аристотель. Сочинения: В 4 т. Т. 1. Метафизика. Этика. Политика. – М.: Мысль, 1983. – 479 с.
2. Ибн Сино. Книга исцеления. Кн. 1. Логика. – Ташкент: Фан, 1980. – 265 с.
3. Декарт Р. Размышления о первой философии. – М.: Наука, 1994. – 215 с.
4. Локк Дж. Опыт о человеческом разуме: В 2 т. – М.: Мысль, 1985. – Т. 1. – 380 с.; Т. 2. – 396 с.
5. Кант И. Критика чистого разума. – М.: Эксмо, 2007. – 847 с.
6. Галтон Ф. Наследственный гений: Исследование его законов и последствий. – СПб.: Наука, 1902. – 312 с.
7. Бине А., Симон Т. Методика измерения умственного развития детей. – М.: Педагогика, 1960. – 148 с.
8. Терман Л. Измерение интеллекта. – М.: Педагогика, 1968. – 264 с.
9. Спирмен Ч. Теория интеллекта: Общий интеллект и факторный анализ. – СПб.: Речь, 2004. – 202 с.
10. Гарднер Г. Структура разума: Теория множественного интеллекта. – М.: Институт психотерапии, 2007. – 512 с.
11. Стернберг Р. Интеллект: теория, тестирование и применение. – СПб.: Питер, 2001. – 364 с.
12. Виготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.
13. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1977. – 304с.
14. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2000. – 720 с.
15. Пиаже Ж. Психология интеллекта. – М.: Педагогика, 1994. – 222 с.
16. Бурдье П. Социальное пространство: поля и практики. – М.: Институт экспериментальной социологии, 2005. – 387 с.
17. Шульц Д., Шульц С. Психология: история и современные направления. – СПб.:

Питер, 2015. – 468 с.

18. Гекман С.Н. Эволюция понятий интеллекта в психологии и педагогике // Психология образования. – 2020. – № 3. – С. 12–19.
19. Ганиева М. Интеллектуальный капитал как фактор устойчивого развития общества // Общество и управление. – 2022. – № 2. – С. 33–41.
20. OECD. Understanding the Brain: The Birth of a Learning Science. – Paris: OECD Publishing, 2007. – 266 p.